



## O'ZBEKISTONDA TASHQI SAVDONI MOLIYAVIY QO'LLAB- QUVVATLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Fozilova Shaxloxon

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

ORCID:0009-0007-2978-9091

Shaxloxonnodirovna\_97@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17404989>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 21-oktabr 2025 yil

### KEYWORDS

*tashqi savdo, strategiya, eksport, bozor iqtisodiyoti, jahon bozori, valyuta birjasi, import.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'zbekistonda tashqi savdoni rivojlantirish va moliyaviy qo'llab quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari keltirilgan. Jumladan, O'zbekiston uchun tashqi savdoni takomillashtirish qulayliklari va tashqi iqtisodiy faoliyatda asosiy strategiya nimadan iborat ekanligi, mamlakat eksport salohiyatini oshirish borasida qanday chora-tadbirlar amalga oshirish kerakligi, umuman olganda, eksport rivoji uchun moliyaviy imkoniyatlarni rivojlantirishda samarali chora-tadbirlar O'zbekistondagi bozor iqtisodiyotiga ulkan imkoniyatlar berishi yoritib berilgan.*

Jahon tajribasidan ma'lumki, hech qanday mamlakat jahonning boshqa mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirmasdan turib mustaqil holda rivojlana olmaydi. Bu esa, o'z navbatida iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlarning ya'ni jahon tajribasini o'rganish bilan birga boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashni taqozo qiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil etish va ularni boshqarish mexanizmining samaradorligi ko'p jihatdan xalqaro savdoning moliyaviy ta'minoti bilan bog'liqdir. Mamlakatimizda xalqaro savdo aloqalarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning globallasuvi va jahon iqtisodiyoti tizimiga chuqur integratsiyalashuvini amalga oshirishga qaratilgandir

### Adabiyotlar sharhi.

Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi mamlakatda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Ushbu hujjat bevosita investitsion muhitni yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi esa iqtisodiy o'sishni yangi bosqichga olib chiqishni ko'zda tutadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yildagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti ushbu strategiyaning amaliy asoslarini belgilab, ayniqsa eksportchilarga beriladigan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlov choralari kuchaytirishga qaratildi. Bu esa tadbirkorlar faoliyatining tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'ldi. Shuningdek, eksport salohiyatini oshirish borasida 2000-yil 5-iyundagi PF-2613-sonli Farmon muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Unda eksport

mahsuloti ishlab chiqaruvchilarga beriladigan rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar belgilab berilgan bo'lib, bu yo'nalishda davlat siyosatining izchil va tizimli olib borilganini ko'rsatadi. Ilmiy-nazariy manbalar tahlili ham mavzuning asosiy jihatlarini chuqurroq ochib beradi. Jumladan, A.Kireevning "Международная экономика" nomli asarida xalqaro savdo, kapital harakati, moliyaviy oqimlar va ularning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri nazariy asosda tahlil qilingan. Ushbu asar global iqtisodiy muhitda O'zbekistonning o'rnini baholashda nazariy asos vazifasini o'taydi. UNCTAD'ning "Trade and Development Report" (2008) hamda "Handbook of Statistics" hisobotlari esa xalqaro miqyosda savdo-iqtisodiy tendensiyalarni, eksport-import jarayonlarining statistik manzarasini o'rganishga xizmat qiladi. Bu ma'lumotlar O'zbekistonning tashqi savdodagi o'rni va istiqbollarini solishtirma tahlil qilish imkonini beradi. Mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan darslik va qo'llanmalarda ham xalqaro iqtisodiy munosabatlarning O'zbekistondagi rivojlanish xususiyatlari yoritilgan. M. Mirsaidovning "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" nomli o'quv qo'llanmasida xalqaro iqtisodiy aloqalarning shakllanishi, tashqi savdo siyosati va investitsiyaviy oqimlar chuqur tahlil qilingan.

#### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ilmiy tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, o'zaro va qiyosiy tahlil qilish va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

#### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Tashqi savdo munosabatlarining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqarorligi oshishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, mamlakatda tashqi savdo operatsiyalarini va eksport salohiyatini oshirish hozirgi kunning muhim masalalaridan biridir.

Shu nuqtayi nazardan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham davlatimizning eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim vazifalar belgilab olingan. Jumladan, barcha imkoniyatlardan foydalangan holda 2026-yilda respublika eksport hajmini 30 mlrd. AQSH dollariga yetkazish (2021-yilda ushbu ko'rsatkich 16 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan), 2026-yil oxirigacha eksportchi korxonalar sonini joriy yil boshidagi 6,5 mingtadan 15 mingtaga oshirish, xususiyl sektorning eksportdagi ulushini 60% gacha yetkazish, shuningdek, tovarlarning eksport geografiyasini 115 ta davlatdan 150 taga yetkazish maqsad qilingan.

Oxirgi yillarda yurtimizda eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2019-yilda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Eksportni rag'batlantirish agentligi, xuddi shu yili nodavlat notijorat tashkiloti shaklida "O'zbekiston eksportchilari" uyushmasi tashkil etildi, shuningdek, 2020-yilda Eksportni rag'batlantirish agentligi huzurida Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi. Shu bilan birga, o'tgan davr mobaynida eksportchi korxonalariga ko'plab soliq va bojxona imtiyozlari berildi, xorijiy davlatlarda tashkil etilgan biznes-forumlar va anjumanlarda ishtirok etishiga ko'maklashildi hamda eksport bilan bog'liq xarajatlarning bir qismini davlat tomonidan qoplab berish mexanizmi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ayni pallasida eksport hajmi va salohiyatini oshirish bir necha sababga ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi.

- Birinchidan, eksportni rivojlantirish ichki bozordagi chegaralangan imkoniyatlardan tashqari taklif bozori hajmini tashqi omillar evaziga kengaytirish imkonini beradi. Bu esa milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Mazkur omilning dolzarbligini shu bilan izohlash mumkinki, bir tarafdin, mustaqillikka erishgunga qadar mamlakatdagi deyarli barcha korxonalar nafaqat O'zbekiston, balki boshqa respublikalar ehtiyojini ham qondirishga qaratilgan holda tuzilgan bo'lsa, boshqa tarafdin, mustaqillik yillarida tashkil etilgan ko'pgina korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati ham (asosan to'qimachilik, avtomobil, kimyo sanoati va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida) ichki talabnigina emas, balki tashqi dunyo ehtiyojini ham qondirishga yo'naltirilgan. Biroq ayni paytda mazkur korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanilmayapti va ularning bir qator mahsulotlari ichki bozor hajmining chegaralanganligi va ushbu sohada mavjud muammolar tufayli eksportning ham chegaralanganligi uchun o'z raqobatbardoshligini yo'qotmoqda. Demak, mazkur korxonalarda mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish va shu asnda raqobatbardoshlikka erishish ko'p jihatdan kelajakda bu mahsulotlar eksporti ko'lamini oshirish bilan bog'likdir. Ayni paytda yana bir omilni hisobga olish kerakki, hozirgi davrda iqtisodiyotning deyarli ko'pgina tarmoklarida raqobatbardoshlikka erishish faqatgina ommaviy ishlab chiqarish (ko'lam ta'siri) evaziga bo'lishi mumkin. Bu esa nafaqat ichki, balki tashqi bozor talabi ham avvaldan hisobga olingan tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil etish kerakligini nazarda tutadi.

- Ikkinchidan, eksport faoliyati davrida milliy ishlab chiqaruvchilar tashqi bozorda chet ellik ishlab chiqaruvchilar tomonidan jiddiy raqobatga duch keladilar. Bu holat ularni doimo ishlab chiqarishni zamon talablariga mos tarzda joriy etish, yangi texnologiyadan foydalanish, mahsulot assortimentini yangilab turish va uning tannarxini pasaytirishga undaydi. Demak, uzoq muddatli davrda raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishning muhim sharti sifatida milliy ishlab chiqaruvchilarning eksport faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan siyosatni aytish mumkin.

- Uchinchidan, yildan yilga O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan chet el sarmoyalari ko'lamini ortmoqda. Bu, o'z navbatda, kelajakda sarmoya siyosati bilan bog'liq bo'lgan sarmoyaviy mahsulotlar importi (bunga ma'naviy va moddiy eskirish natijasida texnika va texnologiyani yangilash, ishlab chiqarishni kengaytirish kabi amallarni misol qilish mumkin), chet el sarmoyasi kiritilgan korxonalar foydasini repatriatsiya qilish, foiz va dividendlarni to'lash, tashqi qarzni uzish kabi xarajatlarning oshishiga sabab bo'ladi. Mazkur chiqimlarni qoplashning asosiy manbai eksport tushumi bo'lganligi sababli to'lov balansi va makroiqtisodiy barqarorlikning kelajakdagi holati ko'p jihatdan mamlakatning eksport imkoniyatlarini kengaytirishga bog'liq bo'ladi.

- To'rtinchidan, iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish hamda jami eksport va ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar salmog'ini oshirish iqtisodiyotni texnologik jihatdan modernizatsiya qilish masalasiga borib taqaladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun sarmoyaviy mahsulotlar importi hajmini sezilarli darajada oshirish kerak. Bunday mahsulotlar importi xarajatlarini qoplashning

asosiy manbai esa eksport bo'lganligi uchun mazkur masalaning echimi ham eksportni rivojlantirish, uni jadallashtirishga bog'liq.

- Beshinchidan, jahon tajribasiga ko'ra, eksportni rag'batlantirish siyosati import o'rnini bosish siyosatiga nisbatan ancha samarali. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash va aholi real daromadlarini sezilarli darajada oshirishga faqatgina import o'rnini bosish siyosatidan voz kechib, eksportni rag'batlantirish siyosatiga urg'u bergandagina erishish mumkin.

Shu bilan birgalikda, Respublikamizda 2019 yilda olib boriladigan tashqi iqtisodiy siyosat respublika eksport salohiyatini yanada oshirishga, mahalliy mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga, eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishga hamda mamlakatda iste'mol narxlarini past darajada ushlab turishga qaratiladi.

O'zbekiston respublikasida xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishining huquqiy asoslari sifatida, O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunlari va boshqa moliya tizimga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari xizmat qiladi.

Eksport sohasini rivojlantirish va soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelinayotganligiga qaramasdan o'tkazilgan o'rganish va amaliyot bugungi kunda tashqi savdo operatsiyalarini rivojlanishi va ularni moliyalashtirish bilan bog'liq bir qator muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Birinchidan, eksport qiluvchi korxonalarining bank xizmatlaridan foydalanishdagi to'siqlar soha vakillarining o'z mahsulotlarini eksport qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda tashqi savdo bilan shug'ullanayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar oldida turgan eng dolzarb muammo - bu import qiluvchilarni valyutaga bo'lgan talabini qondirish muammosi hisoblanadi. Import bilan shug'ullanuvchi korxonalarining import bo'yicha xorijiy valyutani sotib olish jarayonini «Birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutani xarid qilish va sotish operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom» tartibga soladi<sup>1</sup>.

Ushbu tartibga ko'ra, xorijiy valyutani xarid qilish va sotish buyurtmanomalari bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar vakolatli banklar ekspertlari tomonidan uch ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi. Taqdim etilgan hujjatlar belgilangan talablarga javob bergan holatlarda ekspert guruhi a'zolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tasdiqlaydigan shakl bo'yicha vakolatli bankning ekspertlar xulosasi tayyorlanadi. Shuningdek, vakolatli bank ekspert guruhining ijobiy qarori qabul qilingandan so'ng keyingi kundan kechikmay xorijiy valyuta xarid qilish uchun valyuta birjasiga buyurtmanoma beriladi.

Ammo, valyuta birjasida berilgan buyurtmanomalarining bajarilish muddatlari aniq belgilanmaganligi sababli, import qiluvchilarning buyurtmalarining bajarilishi kechikishi mumkin. Bu esa, import shartnomasining o'z muddatida bajarilmasligiga olib keladi.

Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi tobora ortib borayotgani, tashqi savdo aylanmasining o'sishi, xorijiy sarmoya va mablag'larning keng qo'llanilishi, iqtisodiyotda dollarlashuv darajasining ortib borayotgani iqtisodiyotning valyuta risklariga

<sup>1</sup> Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 iyuldagi 294-son qaroriga 2-ilova. «Birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutani xarid qilish va sotish operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom».

nisbatan sezgirlikini oshirmoqda. Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish aholi farovonligi va milliy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish va xalqaro iqtisodiy va valyuta munosabatlarida uning teng pozitsiyasini ta'minlash imkonini beradi. muammolarni muvaffaqiyatli hal etish milliy valyutaning barqaror aylanishiga ham bog'liq.

Valyuta bozorini liberallashtirishning o'zi valyutani tartibga solishning barcha muammolarini hal etmaydi. Ijobiy makroiqtisodiy samaraga erishish uchun , so'mni konvertatsiya qilish, so'ngra iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va valyutani tartibga solishning yangi strategiyasiga o'tish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali yangi bosqichga o'tish mumkin. Shu bilan birga, asosiy natija valyuta bozorini liberallashtirish yashirin iqtisodiyotni, narxlar va valyuta kurslarining o'zgarishini cheklash, valyuta bozorini erkinlashtirishga o'tish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo'ladi.



#### 4.2.1 rasm Xorijiy valyutaga talabning o'sishi va o'zgarish dinamikasi

Ikkinchidan, hozirgi paytda respublikamizda mahsulot eksportini oshirishni ta'minlash, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ulushini oshirish hisobidan uning tarkibini sifat jihatidan o'zgartirish vazifasi qo'yilmoqda. Biroq, eksport hajmining umumiy o'sishiga qaramay, xomashyo eksporti barqaror ravishda yuqori bo'lib qolavermoqda. Mavjud statistika ma'lumotlari xomashyo eksporti va noxomashyo eksportini bir-biridan aniq farqlashni amalga oshirishga imkon bermaydi. Shu sababli O'zbekistonning asosiy xomashyo eksport tovarlari – paxta tolasi, energetika vositalari va neft mahsulotlari, qora va rangli metallargina alohida guruhga ajratildi. Shu sababli mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanishining asosiy sharti samarali va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hisoblanadi, bu esa davlatdan

iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, investitsion jarayonlarni faollashtirish, soliqqa tortish darajasi va kredit qiymatini pasaytirish, narx shakllanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish, valyuta va fond bozorlarida (bu O'zbekistonda deyarli rivojlanmagan) operatsiyalar daromadlilikini pasaytirish va boshqa bir qator muammolarni hal etishga yo'naltirilgan keng miqyosli chora-tadbirlar amalga oshirishni talab qiladi. Shunday qilib, tashqi savdo siyosati makroiqtisodiy siyosatning davomchisi va bir paytning o'zida uni amalga oshirish vositalaridan biri bo'lishi ko'zda tutilgan.

**Uchinchidan**, "Importyor korxonalar qora ro'yxati"ning mavjud emasligi sababli ko'pgina milliy eksport qiluvchi korxonalar xorijiy hamkorlarga aldanib qolmoqda va katta miqdorda moliyaviy yo'qotishlarga duch kelmoqda.

Oxirgi yillarda boshqa davlatlar bilan o'zaro ikki taraf lama aloqalarning yo'lga qo'yilishi va onlayn tijoratning rivojlanishi natijasida milliy korxonalarimizning eksport hajmi va miqdori sezilarli darajada ortib bormoqda.

Ushbu jarayonda tadbirkorlarimiz shartnoma tuzib, xorijiy hamkorlariga mahsulotlarni oldindan yetkazib bermoqda yoki shartnomalar bo'yicha mahsulotlar narxini oldindan to'lab bermoqda. Biroq, keyingi bosqichda moliyaviy qiyinchiliklar bilan bog'liq jiddiy muammolarga duch kelmoqdalar. Ya'ni, ko'p hollarda xorijiy kompaniyalar tomonidan narxi oldindan to'lab berilgan mahsulotlarni yetkazib bermaslik yoki aksincha, yetkazib berilgan mahsulotlar narxini to'lab bermaslik holatlari kuzatilmoqda. Buning natijasida, milliy tadbirkorlarimiz katta miqdorda moliyaviy zarar ko'rmoqda, bundan tashqari, o'z pulini va mahsulotlarini qaytarish maqsadida xorijiy hamkori bilan sudlashishga va natijada o'zining juda ko'p vaqtini yo'qotishi (sarflashi)ga sabab bo'lmoqda. Bu esa, ularning eksport faoliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tashqi savdo munosabatlarida bu kabi salbiy oqibatlarining vujudga kelishiga, birinchidan, ushbu xorijiy korxonalarining halol tadbirkorlik maqsadida emas, balki firibgarlik maqsadida tuzilganligi sabab bo'layotgan bo'lsa, ikkinchidan, yurtimizda vakolatli davlat organlarida **"Importyor korxonalar qora ro'yxati"**ning mavjud emasligi hamda buning natijasida milliy korxonalarimiz o'z hamkorlari haqida yetarli va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lmasdan o'zaro savdo munosabatlariga kirishayotganligi sabab bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini divesifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi "ochiq muloqoti"
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. PF-4947-son, 2017 yil 7 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 5 iyundagi "Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-2613-son Farmoni.
4. Международная экономика - Алексей Киреев, часть - I, Москва, 2000 г. – 325 с. 2 Trade and Development Report, 2008, UN va UNCTAD Handbook of Statistics, 2008 yil ma'lumotlari.
5. M.Mirsaidov Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Moliya-iqtisod" 2006 y.
6. A.V.Vaxobov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar.Darslik.- T.: Baktria press, 2015.- 584 b.